

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARGA INGLIZ TILINI MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'RGATISH

Marasulova Dono Nigmatullayevna

Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası
p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b., katta o'qituvchisi

Alovatova Laylo Sherzodxodjayevna

Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ush bu maqolada 5-6 yoshli bolalarga ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'rgatishda multimedia texnologiyalaridan foydalanishning mazmuni va mohiyati yoritib berilgan, 5-6 yoshli bolalarning ingliz tiliga qiziqishini shakllantirishning yosh va pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari aniqlashtirilgan, 5-6 yoshli bolalarga ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'rgatishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: multimedia ta'lim resursi, zamonaviy texnologiyalar, integrativ yondashuv, kompyuter, televizor, interaktiv doska, video, audio, animatsiya, didaktik o'yinlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, chet tillari o'quv dasturlari.

Jahon ta'lim muassasalarida integratsiyalashuv jarayoni, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamkorlik jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan sharoitda chet tillarni o'rganishning innovatsion texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Chet tillarni o'rganishni kichik yoshdan boshlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim va tarbiya berishning optimal usullarini joriy qilish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash uchun ta'lim dasturlari, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish, chet tillarni o'rgatish mazmunini modernizatsiyalashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

“Integrativ” so'zi lotin tilidan “tiklash”, “butun” deb tarjima qilingan bu tushuncha bir narsaga ikkinchi narsani bog'lab bir butun qilish ma'nosini anglatadi.

N.S. Svetlovskaya integratsiyani “bir xil turdagi aniqlangan elementlar asosida yangi yaxlitlikni yaratish va “ilgari bir-biridan farq qiladigan bir nechta birlikdagi qismlar (ta'lim sub'yektlari, faoliyat turlari va boshqalar), so'ngra ushbu elementlar va qismlarning moslashuvi” deb tushunadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrativ yondoshuvdan foydalanish faoliyat turlarini amalga oshirishda qo'llanilib kelmoqda. Pedagogikada bu yondashuv

bolaning atrofidagi dunyo va bu dunyodagi o'zi haqida yaxlit tushunchani shakllantirishga yordam beradi.

Muammoning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda maktabgacha ta'limda integratsiya ilmiy-pedagogik va tadqiqot nuqtai nazaridan yetarlicha o'rganilmagan va tadqiq etilmagan.

Maktabgacha ta'lim sohasida boshqa sohalarda ham ilmiy tadqiqotlar olib borildi, xususan, G.Nazirova maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni takomillashtirish muammosini o'rgandi [3], N.Mo'minova maktabgacha ta'lim pedagoglarining malaka oshirish jarayonida media kompetentsiyasini rivojlantirish muammosiga e'tibor qaratdi [2].

Maktabgacha ta'limda integratsiya masalalariga talabgor I.To'ychieva to'xtalib, ilmiy tadqiqot maqsadi sifatida maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tayyorlov guruhi bolalarining aqliy faoliyatini rivojlantirishini tanladi. Uning fikricha: "tayyorlov guruhidagi bolalarning aqliy faoliyatini rivojlantirishda xalq pedagogikasi elementlarini integratsiyasining ahamiyati muhimdir" [5]. Lekin biz, ayniqsa, Z.Azizovaning maktabgacha ta'limga qo'shgan hissasini alohida qayd etib o'tamiz, u qo'g'irchoq teatri orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarning axloqiy va estetik fazilatlarni o'rgangan [1]. "Ona tilidagi nutqiga asoslangan holda bolalar nutqini rivojlantirish, nutqning fonetik, leksik, grammatik tomonlarini rivojlantirish masalalarini" F.Qodirova o'rgandi [4].

Zamonaviy sharoitda bolaning dunyoni yaxlit idrok etishi chet tilini samarali o'rgatishda foydalanish imkonini beradi. Bunday modelning tarkibiy qismi sifatida, bolaning ma'lum bir yoshiga tanish bo'lgan turli xil faoliyatlarni birlashtirish jarayonida tarbiyalanuvchilar o'rtasida kommunikativ aloqani yaratishga asoslangan ta'limga integrativ-kommunikativ yondashuv xizmat qilishi.

Bolalarning zamonaviy axborot texnologiyalariga jiddiy qiziqishini inobatga olib, ingliz tili mashg'ulotlarida bu imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chet tilini o'qitish mazmunini tinglab tushinish, gapirishga o'rgatishda multimedialar katta o'rin tutadi. Ta'lim-tarbiya faoliyatida mashg'ulot dasturi materiallari bilan birgalikda audio va video materiallardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini integrativ yondashuv asosida o'rgatishniga yordam beradi va nutq faoliyati uchun motivatsiyani rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda an'anaviy shakllar bilan birga multimedia texnologiyalaridan foydalanish bolalarda katta qiziqish uyg'otadi va bilish darajasi samaradorligini ancha oshiradi. Hozirgi paytda hayotimizni multimediasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Integrativ yondashuv asosida bolalarga ingliz tilini multimedia texnologiyalari asosida o'rgatish ingliz tili darslarini qiziqarli va zamonaviy qilish, kognitiv va ijodiy vazifalarni hal qilishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshli bolalarga ingliz tilini o'rgatishda ta'lim-tarbiya jarayonlarida, o'quv faoliyatini tashkil etishda belgilangan leksik minimumni o'zlashtirishda predmetli-ko'rgazmali usullardan foydalanib, ingliz tilidagi kitoblarni o'qib berish, sher'larni yodlash, qo'shiqlarni kuylashga o'rgatish; matnga muvofiq musiqiy ritmik harakatlarni bajarish, sahnalashtirishni ijro etishni o'rgatish, o'yinlarda qatnashish, audio-video materiallarni, multfilmlarni ko'rib-tinglab tushinish va ijodiy vazifalarni bajarish natijasida integrativ yondashuv amalga oshiriladi.

Chet tilini o'qitish mazmunini tinglab tushinish, gapirishga o'rgatishda multimedialar katta o'rin tutadi. Ta'lim-tarbiya faoliyatida o'quv dasturi materiallari bilan birgalikda audio va video materiallardan, multfilmlardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini integrativ asosda o'rgatishga yordam beradi va nutq faoliyati uchun motivatsiyani oshiradi.

Integrativ yondashuv asosida bolalarga ingliz tilini multimedia texnologiyalari asosida o'rgatish ingliz tili darslarini qiziqarli va zamonaviy qilish, kognitiv va ijodiy vazifalarni hal qilishga yordam beradi.

Ekrandagi harakat, ovozlar, animatsiya uzoq vaqt davomida bolaning e'tiborini tortadi va o'rganilayotgan materialga qiziqishini oshirishga yordam beradi. Multimedia texnologiyalari pedagogik jarayonni optimallashtirib, bolalarga individuallashtirish imkonini beradi, ularning kognitiv rivojlanishini sezilarli darajada oshiradi.

Integrativ yondashuv asosida 5-6 yoshli bolalarga ingliz tilini o'rgatishda multimedia texnologiyalaridan foydalanishga doir tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi: maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tilidagi lug'at boyligini oshirishda she'rlar, qo'shiqlar, kitob o'qish, sahnalashtirish bilan birgalikda multimedia vositalaridan foydalanish orqali til ko'nikmalarini mustahkamlash nihoyatda samarali bo'lib, ingliz tili – musiqa – ritmika – ijodiy faoliyat birligi bolaning tinglab tushunish va gapirish qobiliyatini rivojlantirib, ingliz tilini egallashga nisbatan motivatsiyani oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. *Spanish Journal of Society and Sustainability*.—Published February, 8, 12-15.
2. SH Sadikova. **TYPES AND CONTENT OF PICTURE ACTIVITY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**. Science and Innovation. 2022. 760-764.

3. SH Sadikova. [PEDAGOGICAL INNOVATION CLUSTER OF ACTIVITY OF CENTERS IN PRESCHOOL EDUCATION](#). Science and Innovation. 2022. 1138-1143
4. Козырчикова Н.Н. Развитие познавательных способностей детей дошкольного возраста в процессе интеграции образовательных областей, ВКР., Екатеринбург., 2019 г.
5. Муминова Д.Р. Развитие ранней грамотности у детей через систему оценки убеждений и практики педагогов в дошкольном образовании, Автореферат диссертации на соискание научной степени доктора философии по педагогическим наукам (PhD), 2022 г.
6. Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish. Avtoreferat. Pedagogika yo'nalishi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun dissertatsiya., 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi Byulleteni, 2018 yil 3-son. e-mail: info@oak.uz.
8. Туйчиева И.И. Развитие мыслительной активности детей подготовительной группы в дошкольных организациях. Автореферат., размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.mdomoi.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet»: www.ziynet.uz.